

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM

VAZIRLIGI

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK FILOLOGIYASI

KAFEDRASI

КУРС ИШИ

Mavzu: “Abulfayzxon” tragediyasi fojeasi

Bajardi: Tajimuradova Nasiba

Qabul qildi: Abdullayev H

Nukus -2014

Mavzu: “Abulfayzxon” tragediyasi fojeasi

Reja:

1. Fitrat hayoti va ijodiy faoliyati
2. “Abulfayzxon” dramasi g’oyaviy-badiiy xususiyati
3. Fitratning she’riy merosi

XX asr faqat o'zbek xalqi hayotida emas, balki butun dunyo hayotida alg'ov-dalg'ovlarga boyligi bilan ajralib turadigan davr bo'ldi. Vu asrga kelib, hayot jarayonlari tezligi haddan ziyod ortdi. Ijtimoiu hodisalarning almashinish surati aqlga sig'mas darajada tezlashdi. Turkiston xalqlarining necha asrlar mobaunida davom etib kelayotgan bir maromdagi mudroq hauoti Shu asr boshida ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Fikrdagi yangilanish, texnika yutuqlarining kirib kelishi, axborot almashishning tezlashgani turkistonliklarning hauot tarzlarini o'zgartirib yubordi. Shu vaqtga qadar milliy adabiuotimiz milliy hauotimiz bilan uelkama-uelka bormas edi. Garchi, adabiyotimiz hauotdan tamomila ajralib qolmagan bo'lsa-da, ijtimoiy turmushning muamolari uni to'la chulg'ab olmasdi: XX asrga kelib, adabiyot hauotga yaqinlashdi. Vu bilan kifoyalanib qolmay, hauotni o'zgartirishga urina boshladi. Rossiya bosqini, uning zo'ravonlikka asoslangan mustamlakachilik siyosati Turkiston xalqlarining usiz ham og'ir bo'lgan hayotini yanada qiunlashtirdi. Ijtimoiy adolatsizlik, huquqiu tengsizlik tufayli keshauu-kunduz tinim bilmay ishlagan yurt egalari tobora qashshoqlashib, ularni talash va aldash bilan shug'ullangan bosqinchilar boyib bormoqda edi. Qashshoqlik tufayli esa turkistonliklarda g'urursizlik, johillik, tobelik, loqaydlik singari illatlar shakllanmoqda ediki, bu hol o'z millatining o'tmishidan xabardor va kelajagidan umidi bor ijodkor ziyolilarni bezovta qilmasligi mumkin emasdi. XIX asrning adog'i XX asrning boshlarida birgina Turkistonda emas, balki dunyodagi juda ko'p mustamlakalarda milliy uyg'onish harakati boshlangan edi. Ijtimoiy adolatsizlikni yo'qotmoqchi, nohaq tartiblarni o'zgartirmoqchi bo'lgan fikr kishilari millatning noshor holati va og'ir turmush tarzini o'zgartirish ushun dastlab xalqqa bilim berish kerak, deb hisobladilar. Millatni g'aflatdan uyg'otmay, xalqning ruhida taraqqiyotga mayl paydo qilmay turib, hesh narsaga erishib bo'lmasligi tushunib yetildi. Millatga ma'rifat berish sifat jihatidan ham, sur'at jihatidan ham tamomila boshqacha tashkil etilishi lozimligi auon bo'ldi. Faqat ruhga ta'sir etadigan, axloqni takomillashtiradigan bilimlar bilan kifoyalanib bo'lmasligi, fan-texnika asoslarini puxta o'rganish zarurligi anglab yetildi. Buning uchun yangi o'qitish usullari joriy etilishi kerak edi. Shu tariqa, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran

shakllana boshlagan ma'rifatshilik qarashlari XX asr boshlariga kelib jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga asos bo'ldi. "Jadid" so'zi arabsha "yangi" ma'nosini berib, taraqqiyotga intilgan kishini anglatadi. Ma'rifatchilar adabiyotni jaholatga qarshi kurash vositasiga aylantirganlaridek, jadidlar ham badiiy adabiyotni xalqni g'aflat va mustamlaka zulmidan qutqarish quroliga aylantirdilar. Shuni aytish kerakki, ma'rifatshilik bilan jadidchilik faqat yuzaga kelgan vaqt nuqtayi nazaridangina emas, balki o'z oldiga qo'ygan maqsadlari jihatidan ham turli hodisalar edi. Chunonchi, ma'rifatchilar mavjud holatni o'zgartirishni emas, balki uni isloh qilishni, xalqning ma'rifiy saviyasini ko'tarishni maqsad qilgan edilar. Jadidlar uchun ommani ma'rifatli qilish bosh maqsad yo'lidagi bir bosqich edi, xolos. Maqsad esa vatanni obod, millatni ozod qilish va Turkistonning avvalgi shuhratini tiklashdan iborat edi. Ishni XIX asrning 90- yillarida yangi usul maktablari tashkil qilishdan boshlagan jadidlar ko'p o'tmay, Turkistonda hur, demokratik mustaqil davlat tuzishni rejalashtirdilar. 1917- yilda Turkiston muxtoriyatining bunyod etilishi shu rejaning amalga oshirilishi yo'lidagi jiddiu urinish edi. XX asr boshiga kelib, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, xalqaro aloqalarning takomillashuvi millatning ma'rifatli vakillariga o'z xalqi hayotini dunuodagi mutaraqqiu xalqlar turmushi bilan solishtirish imkonini berdi. Rossiyada 1905- yil oktabrdagi so'z va matbuot erkinligi haqidagi Manifestning qabul etilishi natijasida o'zbek matbuotining rivojlanishiga ham bir qadar imkon yaratildi. Agar o'zbek tilidagi birinchi va yolg'iz gazeta 1870- yildan chop etilayotgan "Turkiston viloyatining gazetisi" bo'lsa, 1905- yildan so'ng vaqtli matbuot soni ansha ko'paydi. 1905-1917- yillar orasida o'lkada 22 gazeta, 8 jurnal o'zbek tilida chiqarilgan. Bu hol millat ahlining tafakkur tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Kundalik matbuot o'zbek adabiyotidagi yangilanishlar ko'lamining kengayishiga sabab bo'ldi. Kitobning sanoat uo'li bilan shor etilishi ham millat ijtimoiy-estetik tafakkuri rivojlanishining kuchli omili bo'ldi. Jadid adabiyoti to'lig'isha millatni uyg'otishga qaratilgan edi. Bu adabiyotning qahramoni avvalgi davrdagiday yuqori tabaqa vakillari yoki ilohiy qudrat bilan nurlantirilgan siymolar emas, balki ommaning ichidan chiqqan, unga qatib boradigan va shu

bois xalqqa ta'sir ko'rsatish imkoniyati kattaroq bo'lgan oddiy kishilar edi. Jadid adiblari yangi mavzularni uangi janrlarda va yangi obrazlar orqali ifodalashga urindilar. Yana bir muhim jihat Shundaki, jadid uozuvshilari shunchaki ijodkor emas, balki jamoatchi ham edilar. Ular faqat qalami bilan emas, balki ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy amali bilan ham millatni uyg'otishga jahd qilgandilar. Agar ma'rifatchilar ko'p asrlik milliy adabiyotga yangi mavzular olib kirgan bo'lsa, jadidlar o'zbek adabiyotiga drama, roman, hikoya singari uangi janrlarni kiritdilar. M. Behbudiyning "Padarkush", A. Avloniyning "Advokatlik osonmi", "Pinak", "Biz va siz", "Ikki sevgi", Fitratning "Munozara", "Hind sayyohi", "Oila", "Yurt qayg'usi", "Abulfayzxon", "Shautonning tangriga isyoni", "Qiyomat", Hamzaning "Uyon, Vatan!", "Yig'la, Turkiston", "Dardiga darmon istamas", "Turkiston", "Shundoq qolurmu", "Yangi saodat...", "Zaharli hayot...", "Vou ila xizmatchi", "Maysaraning ishi" , "Paranji sirlaridan bir lavha", "Istibdod qurbonlari", "Loshmon fojiasi", "Farg'ona fojiasi", Qodiriyning "Uloqda", "Tinch ish", "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi", "O'tkan kunlar", "Mehrobdan shayon " , Sho'ironing "Buzilgan o'lkaga", "Xalq", "Ko'ngil", "Vinafsha", "Go'zal Farg'ona", "Go'zal", "Vahm", "Istash", "Galdir", "Bahorni sog'indim", "Sirlardan", "Yorqinoy", "Kecha va kunduz" singari va boshqa yuzlab asarlar jadid adabiyotining yetuk namunalaridandir. Jadid adiblarining asarlarida insoniy taqdir, qismat fojialari millat ozodligi, inson erki, Vatan buyukligi muammolari fonida aks ettirildi. Jadid adabiyotida tarixiy adolat, siyosiy tenglik, shaxs va millat erki, xalqni g'aflatdan uyg'otish singari o'tkir ijtimoiy muammolar juda ko'p tasvirlandi. Jadidlarning vatan, millat, ozodlik yo'lida jon fido etishga chorlab bitilgan olovli asarlari samimiu, ammo yuksak darajada ijtimoiylashgan shaxslarning nidolari edi. Bunday asarlarda millatning ulkan dardi ma'rifatli insonning shaxsiy fojiasi bilan birgalikda ifoda etilardi. Tuyg'ulur samimiyati, iztirob ko'lamining kengligi ruhiy dardlar teranligini oshirib, umumning dardi alohida shaxsning g'ami, iztirobi darajasiga ko'tarilardi. Odatda, ko'rshilikning iztiroblari alohida shaxslarning dardlaridan baland turadi deb hisoblaniladi. Nolibuki, dard xususlashsagina umuminsoniy miqyos kasb etadi. Jadid adabiyoti

faqat mavzu jihatidan emas, balki ifodasiga ko'ra ham ommaga uaqinlashtirildi. Badiiy asarlarda tasvir injaligi, ifodaning yangiligidan ko'ra, zalvorli va keskin fikr aytishga e'tibor kuchaydi. She'riyat aruzga xos ohangdorlikdan chekinib, barmoqqa xos ochiqlikka erishdi. Kuylanishdan da'vatga aylandi. Aytish kerakki, Sho'rolar davrida o'zbek adabiyotining mohiyati tubdan o'zgardi. Lekin bu birdaniga sodir bo'lmadi. 1917- yilgi oktabr to'ntarishidan keyingi dastlabki davrlarda ham so'z va ijod erkinligi bir qadar saqlandi. Sho'rolar uetarlisha siyosiy va tashkiliy kuchga ega bo'lmagani, uning g'oyalarini kuylaydigan adiblar qatori hali shakllanmagani uchun badiiy adabiyotda nisbatan erkinlik bor edi. Eng iste'dodli ijodkorlar, tabiiy ravishda, millat va vatan ozodligi ushuni kurashayotgan jadid yozuvchilari safida edi. Shuning uchun ham Fitratning "Abulfayzxon" dramasi, "Shautonning tangriga isyoni", "Qiyomat" hikoyalari, Hamzaning "Vou ila xizmatchi", "Maysaraning ishi", "Paranji sirlaridan bir lavha" dramalari, Qodiriyning "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi", "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon". Cho'lponning "Buzilgan o'lkaga", "Xalq", "Ko'ngil", "Binafsha", "Go'zal", "Qalandar ishq", "Galdir", "Sirlardan" she'rlari, "Yorqinoy" dramasi, "Kecha va kunduz" romani singari asarlar sho'rolar davrida uaratilgan bo'lsa-da, mohiyatan jadid adabiyoti namunalari. Chunki e'tiqodi va faoliyat yo'nalishiga ko'ra jaded bo'lgan, hayotni jadidchasi badiiy idrok etadigan odamlar tomonidan yaratilgan edi.

ABDURAUF FITRAT (1886-1938)

Abdurauf Fitrat o'zbek xalqi hayotida XX asr tongida boshlangan Yangi Milliy Uyg'onish davri va uyg'onish adabiyotining buyuk vakilidir.

Adibning hayoti va ijod yo'li. Abdurahim o'g'li Abdurauf 1886- uil Buxoroda tug'ilgan. Mir Arab madrasasida o'qidi. Turkiyaning Istambul dorilfununidagi to'rt yillik (1909-1913) tahsil Abdurauf dunuoqarashining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. "Yosh buxoroliklar"ning siyosiy kurashlaridagi faol ishtirok, maorifni isloh etish, jadidshilik harakatlaridagi jiddiy izlanishlar tufayli tug'ilgan savollarga bu mamlakatning zamonaviy kechmish-

laridan javoblar qidirdi. Vu vaqtda u "tug'ma iste'dod" ma'nosini anglatuvchi Fitrat taxallusi bilan ijod etauotgan shoir va yozuvi sifatida el-yurtga taniqli edi. 1917-uil Fevral inqilobida Fitrat o'z orzularini ham ko'rgandek bo'ldi, biroq Oktabr to'ntarishi uning teran dunyoqarashiga yangi titroqlar soldi. Vir qarashda umidbaxsh ko'ringan, aslida esa, zamirida bosqinchilik g'oyalari, qatag'onlik siyosati yashirin havoalarda umidlarini goh ichiga yutib, goh oshkor etib yashadi. Turkistonda til, adabiyot, san'at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishda shug'ullangan "Chig'atoy gurungi" jamiyatiga rahbarlik qildi. Samarqanddagi Pedakademiya dars berdi, Toshkentda Fan qo'mitasi qoshidagi til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. Buxoro Xalq Respublikasining Tashqi ishlar xalq noziri, maorif noziri singari lavozimlardagi faoliyatida Fitratning davlat arbobi sifatidagi fazilatlarini namoyon bo'ldi. Fitrat o'zbek adabiyotini istiqlol ruhida ajoyib she'rlar, rublitsistik maqolalar, nasriy asarlar, dramalar hamda tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb muammolariga bag'ishlangan teran tadqiqotlar bilan boyitdi. Uning "Shin sevish" (1920), "Hind ixtilolilari"(1923), "Arslon"(1925), "Vose' qo'zg'oloni"(1927), "Abulfayzxon"(1924). "Shaytonning tangriga isyoni"(1924) singari dramatik asarlari muallifga katta shuhrat keltirdi. Bulardan tashqari, Fitratning uana bir qator dramalar yozgani ma'lum, biroq ular bizgacha yetib kelmagan yoxud hozirgacha topilmagan. Yozuvchi "Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir nisha masalalar ham usuli jadid xustuida qilg'on munozarasi ("Munozara"), "Nind sayyohi bayonoti", "Qiyomat" nomli nasriy asarlarida zamonning dolzarb muammolarini yoritdi, xalqni ma'rifat va ziyoga chorladi, yurt va uurtdoshlarining taraqqiyparvar bo'lishlarini orzu qildi. Fitratning eng buyuk orzusi Vatanni ozod, elini erkin ko'rish edi. Bu yo'ldagi faoliyati va ijodj esa, mustabid tuzum maqsadlariga zid edi. U ana shu fidoiylikning qurboni bo'ldi. Fitrat tamomila nohaq aublar bilan 1938- yil 4-oktabrda otib tashlandi. Mustaqillik davriga kelib Fitratning buyuk nomi tiklandi. Hayoti va ijodini atroflicha va chuqur o'rganish boshlandi.Uch jilddan iborat "Tanlangan asarlar"i bosilib chiqdi. Yuksak saviyadagi asarlari 1991- yilda Alisher Navoiy nomidagi Respublika davlat mukofotiga munosib deb topildi.

Milliy uyg'onish jarchisi

Fitrat butun faoliyatini el va yurt ozodligi, taraqqiyot maqsadlariga bo'usundirgan, shu zaylda davlatning boshqaruv tizimini, maorifni, jamiyatni, tuzumni isloh qilish g'oyalarini ilgari surgan, faylasuf va davlat arbobidir. Shularni amalga oshirajak qahramonlar qiyofasini, orzu, umid, armonlarini badiiy asarlarida gavdalantirgan ulug' san'atkordir. Olim sifatida uning tilshunoslik va adabiuotshunoslikda ham xizmatlari katta. Bularning barchasini birlashtiruvshi va uyg'unlashtiruvchi fazilat Fitratning Milliy uyg'onish davri jarchisi va yalovbardori ekanidadir. Adib "Munozara" asarida bir farangi va buxorolik mudarrisning bahsida o'z ifodasini topgan muammolar orqali yurtdoshlarini shu vaqtgaa hukm surganidan farqlanuvchi hayotga e'tiborini torladi. Xususan, maorifni isloh etishga, mehnatga yangicha munosabatda bo'lishga da'vat etadi, dunyoning ilg'or xalqlaridan o'rganishga chorlaydi. Ma'lumki, Fitrat Turkistondagi jadidshilik harakatining eng reshqadam vakillaridan biri edi. Vu asarida uning ana Shu jadidchilik g'oyalari o'zining yorqin ifodasini topdi. Milliy uyg'onish g'oyalari, eng avvalo, shaxs erkinligi, ijtimoiy taraqqiuot muammolarini hal etishga qaratiladi. "Qiyomat" hikoyasi va uning bosh qahramoni Pochamir qiyofasida adib xuddi shu masalalarni talqin etdi. "Shaytonning tangriga isyoni" nomli sheri dramasi bu muammo yanada keskinroq qo'yildi. Go'yoki diniy xurofot tanqid qilinayotgan yo'sinda yozilgan dramada muallif o'zining asl g'oya va maqsadlarini tagzaminli, yashirin shaklda ifodalaydi. Tangri, Shayton, Malak, Odam aro bo'lib o'tgan o'tkir munozara, bahslar asosida Fitrat asar yozilgan davrda o'z xalqi uchun nihoyatda muhim bo'lgan Vatan erki va shaxs erkinligi muammolarini badiiy gavdalantirdi. Umuman, bu masala Fitrat dunyoqarashi va ijodining mehvaridan o'rin tutishini ta'kidlash joiz. Shu ma'noda, "Yurt qayg'usi" rukni ostida berilgan qator mansuralar, sochma she'rlar, mitti publitsistik da'vatnomalar muallifning Milliy uyg'onish jarchisi sifatidagi qiyofasiga abadiy o'chmas nur sohib turadi. Mana, ona timsolidagi Vatanga murojaat etilgan ana shunday mansuralarning biridan kichik rarsha: "Qayg'u tutunlari ichra yog'dusiz qolgan ko'zlaring, u yosh

yomg'urlarin nechuk to'kadir? Zulm zanjirlari bilan bog'langan qo'llaring nechun har yonga uzatiladir, nima tilaysan?..

...Turonim, sendan ayrilmoq - mening uchun o'limim,

Sening uchun o'lmoq mening tirikligimdir.

Fitratning she'riy asarlari

Fitrat she'rlarining g'oyaviy-badiiy yo'nalishi rang-barang. Uning Turkiyada nashr etilgan (1912) forsiy tildagi "Sayxa" ("Faryod") nomli to'plamlari hamda "O'zbek yosh shoirlari" (1922) nomli zamonaviy bayozga kiritilgan she'rlari asosini Vatan, erk, muhabbat, armon, orzu, tabiat, xullas, turfa tuyg'ular tasviri tashkil etadi. Xususan, "Kim deyay seni", "Achiqlanma degan eding", "Nega bo'yla", "Yana yondim" singari she'rlari ana shulardandir. "Shoir" she'ri inson ruhiyatidagi cheksiz tamannolarni, izzat va e'lonlarni yoritishga bag'ishlangan. So'z ruhni nechog'lik yaralamasin, inson umidsiz yashashi mumkin emas. Shoir esa, so'z va ruh aro o'ziga xos bir xilqatdir. Lekin, bu xilqat ishqning shunday bir "eng nozli, erka, injiq yog'dusidir"ki, u ma'shuqasidan, ya'ni hayotdan shunga munosib marhamatni ko'rmoq, topmoq istagi, izlanishi bilan yashab o'tadi. Lekin, bularni u faqat o'zi uchun qidirmaydi, o'zi uchungina topmaydi. Bularni u "yoz gulining yaprog'idan to'qilgan "so'zlar" bilan o'rab, bizga topshirish uchun izlaydi". Shoir, Fitrat talqinicha, kichik, nozli qanotiga butun bashariyatni qo'ya oladigan, "o'ksuz, yo'qsul ko'ngillarni" ko'taradigan bir bulbuldir. Ko'ruarsizmi, uning mitti vujudida nechog'lik xaurli maqsad va qudratli kuch bor. Hayotda esa tushunib-tushunmay, kimlar uni qarg'ab, kimlar ustidan kulib yuradi. Holbuki, ingrab turgan bu mitti jon qo'llashga, ko'makka naqadar muhtoj. Bu fikrlar qatiga Fitrat shoirning Vatan ozodligi, erki uchun fidoiy kurashchi sifatidagi qiyofasini ham singdirgani shubhasiz. Vu she'rda, shuningdek, ma'lum darajada tasayyufiy g'oyalar va obrazlar seziladi. Mamlakat va millat erki uchun kurash shoir she'rlarining yetakchi g'oyasidir. Vu, ayniqsa, "Sharq" she'rida (1920) bo'rtib ko'rinadi. Asarda toptalayotgan, zo'ravon mamlakatlar tomonidan ezilayotgan umumsharq haqida gap borsa-da, muallif uning timsolida, avvalambor, o'z vatanini nazarda tutadi. Chunki shu usulni tanlamasa, bir tomondan talanayotgan uurt haqida "Madaniyat

degan g'arbli olbosti. Boqing, buning ko'krigidan o'q bosdi" deb ochiqdan ochiq uozolmasdi. She'rdagi "O'tlar aro yonib turgan qishloqlar", "Tinch turg'onlar talandilar omonsiz" singari o'tli, g'azabnok misralar mohiyat e'tibori bilan hayot haqiqatiga, kuni kecha kuli ko'kka sovurilgan Qo'qonga, yuholarcha talangan vodiy xalqiga ishora edi. Fitrat she'rda bosqinchilarga nafratini nechog'lik to'kib solmasin, Vatanning, diyorning go'zal manzaralarini chizishga nihoyatda usta. Bosqinchilar tortamasdan burun bu o'lkada turli xalqlar emin-erkin. ahil, hamjihat yashar edilar:

Bunda turdi har usulning har sasi,

Butxonasi, o't uyasi, ka'basi.

Talonskilarga xomtalash bo'lishdan avval bu uurt shunday edi:

Har yonida keng, yam-uashil o'tloqlar,

Jon suvidan yetishkandir gullari.

Vundau she'rlar elga, yurtga Miliy uyg'onish g'oyalarini keng yoyish, ko'ngillarda isyon va tug'yon alangalarini o't oldirish jihatidan muhim ahamiyatga ega edi. Fitrat zamondosh va davradosh adiblardan farqli o'laroq, asarlarida arab, fors so'zlarini imkon qadar kamroq qo'llashga urindi. Fikr, hissiyot, tushunshalarni, asosan, turkiy so'zlar bilan ifodalashga harakat qildi. Zamonauiu til sandig'idagi javohirlar uetishmay qolganda qadingi, tarixiy turkiu so'zlarga murojaat etdi. Vu Xususiyatlar birlashib, Fitrat asarlaridagi badiiy go'zallikni ta'minlagan holda, o'zbek adabiy tili mezonlarini shakllantirishda katta ahamiatga ega bo'ldi. Fitratning o'zbek she'r tuzilishini isloh etishga qo'shgan hissasi ham muhimdir. Ungasha shoirlarimiz asosan aruz vaznida yozgan bo'lsalar, Fitrat she'riyatga faol ravishda barmoq vaznini olib kirdi. Aksar she'rlarini Shu vaznda yozdi. Bu xalqona vazn she'rni hayotga yanada uaqinlashtirdi. Bu tamouil boshqa taraqqiyparvar shoirlar ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. U, xususan, Cho'lpon, Elbek, Votu ijodida yorqin namouon bo'lib, XX asrning 20-30- yillaridan o'zbek she'riyatidagi yetakchi vaznlardan biriga aylandi. Fitrat o'zbek she'r tuzilishini soshma, sarbast she'rlar bilan ham boyitdi. Shoir misralar vaznidagi erkinlik qatlamiga qofiyalanish tizimidagi keng erkinlikni ham olib kirdi, "Sharq", "Mening kecham", "Yana uondim" she'rlari "Yurt qayg'usi" ruknidagi mansuralar ana shundau asarlardir. O'zbek she'r

tuzilishidagi bu islohot qalb dramasini yanada teran ifodalashda, ayniqsa, qo'l keldi. Qalb dramasi tasviri Fitrat she'riyatining asosiy xususiyatlaridan biridir. She'rlarida ko'ringan bu uslub Fitrat dramaturgiyasida yanada teranroq namouon bo'ladi.

"Abulfayzxon" dramasi

Fitratga qadar o'zbek adabiyotida qator dramatik asarlar yozilgan. Dramaturgiuamiz tarixida ular o'ziga yarasha o'rin tutadi. Biroq, jahon adabiyotidagi mezonlar talabiga javob bera oladigan milliy ruh va milliy g'oya bilan sug'orilgan, teran qahramonlar aks etgan bu turdagi yetuk asarlarning muallifi sifatida Fitrat o'zbek dramaturgiyasining asoschisi hisoblanadi. Fitrat elni, uurtini ozod va obod ko'rish dardini dramaturgiuada ham to'kib soldi. O'tgan asrning 20-uillari boshida yozgan "Chin sevish" dramasi Hindiston hayotidagi yoqealarni asos qilib oldi. Shunki, Turkiston hayoti misolida bosqinshilarga qarshi kurash g'oyasini ilgari surishning iloji yo'q edi. Asar ko'proq ma'naviu-ishqiu yo'nalish asosiga qurildi. Lekin, unda ijtimoiu dard yetarlicha ko'rsatilmadi deb topdi, shekilli, muallif ko'p o'tmay shu yo'nalish kuchaytirilgan boshqa bir asar yozishga kirishdi. Natijada, avvalgi asardagi bosh g'oya va qahramonlar saqlab qolinib, milliy istiqlol ruhi kuchaytirilgan deyarli yangi drama - "Hind ixtilolchilari" dramasi paydo bo'ldi. Asar markaziga vatanni bosqinshilardan ozod qilishni hayotning bosh mazmuni deb bilgan Rahimbaxsh va sevgilisi Dilnavoz obrazlari qo'yildi. Abdusubbuh, Badrinad, Fayziahmad va Mahmudxon – Rahimbaxshning hammaslamlari. Kelishmovshiliklarni, diniy, irqiy, g'oyaviy, sinfiy va boshqa ixtiloflarni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, birlashish va Ona tuproqni bosqinchilardan ozod etib, Hindistonni mustaqil qilish kerak, degan g'oya asarning asosini tashkil etadi. Fitrat shu tariqa, o'z armonini Hindiston tasviri orqali ilgari surdi, Yurtdoshlarini shu tarzda kurashga chorladi. "Arslon" nomli besh pardali pyesasida (1925) Buxoro amirligidagi dehqonlarning og'ir hayoti va qismatini tasvirladi. Arslon- dramaning bosh qahramoni. U to'yga yig'ib yurgan pulini sarflab, bir beshora kambag'al yigitni xonavayron bo'lishdan saqlab qoladi. To'lg'inoyini cheksiz sevishiga qaramay, endi to'y qilishning imkoni yo'q. Fursatdan

foydalangan 50 yoshli shdxo'r Mansurboy 18 yoshli To'lg'inoyga og'iz soladi. Qiz sevgisida qat'iy, lekin Arslonga yetishishga u ham shorasiz. Drama shu muhabbat iztiroblarini va adolat uchun kurash jarayonlarini ko'rsatadi. Sinfiylik nazariyasiga qat'iy amal qilish, boylarni butkul qoralab, kambag'allarni nuqul ulug'lash talab qilingan bir sharoitda Fitrat bu mafkuraviy ko'rsatmalarga amal qilmadi. Realist san'atkor sifatida o'z e'tiqodiga sodiq qoldi. Ziddiyatlarni sinflar aro emas, shaxslar aro bo'ladigan hayotiy qarama-qarshilik sifatida ko'rsatdi. Bek, Yasovulboshi, Darg'a singari amaldorlardagi xislatlar ham sinfiy mansubiyat sifatida emas, hayotdagi jonli odamlar tabiati tarzida talqin qilindi. Qahramonlarni jonli, hayotiy, tarixiy haqiqatga mos tarzda realistik aks ettirish, ayniqsa, "Abulfayzxon" tragediyasida yorqin namoyon bo'ldi. "Abulfayzxon" nainki Fitrat ijodi, balki umuman, o'zbek dramaturgiyasidagi Shoh asarlardan biridir. Tragediya badiiy jihatdan teran. U obrazlar tizimidagi puxtalik, kompozitsion qurilishdagi uyg'unlik, badiiy tildagi jozibasi bilan ajralib turadi. Qahramon fikri va harakatidagi emotsionallik, g'oyaning asardagi obrazlilik zahiridan sizib chiqishi, shakl va mazmundagi muhtasir tutum xarakterlar rafosi bilan to'yingan holda ajib bir badiiy yaxlitlik kasb etadi. Asarning yetakchi g'oyaviy-badiiy maqsadi zo'ravonlik, o'zgalarni qullarcha itoatda tutish, taxt va mansab dunyosi barsha razilliklar manbaidir degan muammoni yoritishga qaratilgan. Dramada Buxorodagi Ashtarxoniylar Sulolasining oxirgi namoyondasi Abulfayzxon hokimiyatining tanazzuli va mang'itlar sulolasining hokimiyatga kelishi aks ettirildi. Abolfayzxon taxtni egallagach, eng yaqin kishilaridan ham shubhalana boshladi, ko'rini hibsga olib, birin-ketin qatl etdi. O'tmishdagi bu tarixiy haqiqatni ko'rsatish orqali muallif zamonaviy dardlarni ko'tarib chiqdi. Uning asar asosiga joylagan asl niyati yashirin zulm va zo'ravonlik asosiga qurilgan, bu yo'lda istibdodning hech qanday manfuriligidan qaytmaydigan tuzumni fosh etish edi. Bir jihatdan, tarixning qora va og'ir bir davri yorqin ko'rsatib berildi. Ikkinchi bir jihatdan, taxtning yangi egalari bilan birga, o'z yurtiga sotqinlik qilgan, yangi a'yonlar bilan og'iz-burun o'pishgan yerli amaldorlar ko'magida boshqarilayotgan yangi tuzum va yangi jamiyatning kirdikorlari ham oshib tashlandi. Xayol tilidan asar nihoyasida taxtga nisbatan

aytilgan: "Eng qop-qora saodat-sensan" deyilgan fikr Rahimbiy timsolidagi xonga nisbatangina emas, ayni vaqtda, asar yozilgan davr jamiyatining arkoni davlatiga ham ishoradir. Xususan, Xayol tilidagi: "tinchlik saqlamoq bahonasi bilan millionlarsha inson ko'masini chuqurdan-chuqurga yumalatmog'ingning zamoni hanuzg'acha bilmadimi?" deyilgan fikrda Fitrat o'z zamonasiga nisbatan o'zining qarashlarini ochiq-oydin aytib ham yuboradi. Vundan tashqari, bu fikr hatto, bizning XXI asr ushuni ham O'ziga yarasha qimmatli emasmi? Tragediyaning obrazlar tizimidagi badiiy mantiq va o'zaro bog'lanish kuchli. Abulfayzxon - asarning bosh qahramoni. Uning kuchi aqlida emas, podsholigida, xolos. Podsholigi xayolidan ko'tarilganda o'ziga ishonmay qo'yish, shundan. Abulfayzxon, aslida, nomard, qo'rqqoq, vahimashi odam. O'ziga ishonmagani bois hammadan hayiqaveradi. Uning atrofida gilar ham O'ziga yarasha. Yanada to'g'rirog'i, ishni va gapni unga yoqadigan yo'sinda tutadiganlar. Katta amaldor Ulfatning "podshohlik qon bilan sug'oriladigan og'ochdir" deyishi, o'zininggina gapi emas.. Vu xonga juda ma'qul gapdir. Qozikalon Nizom, to'qsabo Davlat, xonning otalig'i Hakimbiylar ham shu yo'nalishdagi kishilardir. Bu qahramonlarning mohiyati bir yo'nalishda. Lekin, muallif ularni har birini, xuddi hayotdagidek, o'ziga xos bo'lgan fe'l-atvor orqali ko'rsatadi. Ulfat va Davlat shu qadar ustamonki, aksar o'rinlarda xon ularning yetagidan chiqolmay qoladi. Otaliq Hakimboy esa, ayyor, rixini yorganlardan. Nodirshoh bo'lsa, uzoqni ko'zlab ish tutadigan tadbirkor. Dushmanini tashqaridan emas avval ichdan qatoridagilarni qo'lga olib, munofiq va xiyonatchilardan foydalanib:

mahv etish yo'lini totadiganlar xilidan. Bulardan farqli o'laroq, Farhod otaliq mard, to'g'ri so'z, etiqodidan qaytmaydigan kishi. U og'ir vaziyatlarda, nainki

1 **Ko'ma** - to'plam, uyum.

g'ururini saqlab qola biladi, balki kerak bo'lsa, xonning ko'ziga tik boqib haqiqatni ayta oladi ham. Fitrat bu qahramonlar orqali o'zining realist san'atkorligini ko'rsatadi. Xonga to'g'ri gapirib kim baraka topibdiki, Farhod otaliq topsa. Bu qahramon ham haqgo'yligi uchun munosib jazosini oladi. Besh daqiqadayoq uning boshini laganga solib, xon oldiga keltirib qo'yadilar. Holbuki, Farhod otalik xonni,

uning o'z tili bilan aytganda, "bir ota kabi asragan" zot edi. Asar janr tabiatiga ko'ra tarixiy tragediyadir. Uning asosini Ulfat, Davlat, qozi Nizom singari badiiy to'qima Obrazlardan tashqari, Nodirshoh, xonning inog'i Hakimbiy, Ibrohimbiy otaliq, tarixchi Mirvafolar singari tarixiy shaxslar obrazlari tashkil etadi. Tragediyaning bosh qahramoni - Vuxoro xoni Abulfayzxon ham tarixiy shaxsdir. Asarning so'nggi - beshinchi pardasi yakunida Siyovush timsolidagi Xayol obraziga duch kelimiz. Muallif bu ramziy obrazni asarga zo'ravonlik va shafqatsizlikdan iborat g'ayriinsoniylikning alal-oqibati fojiaidir, degan falsafiy ma'noga urg'u berish uchun kiritadi. Buyuk ingliz dramaturgi Vilyam Shekspir tajribalarining ta'siri sifatida o'zbek dramaturgiyasida Fitrat asaridan boshlangan ruh timsolidagi obraz yaratish Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek", Abdulla Oripovning "Sohibqiron" kabi asarlarida davom ettirildi. Xayol obrazi munosabati bilan va umuman, "Abulfayzxon"da kompozitsion uyg'unlikning muhim o'rin tutishini ta'kidlash kerak. Kompozitsiya bu, muallif bosh maqsadi va g'oyasining uzviy ravishda ochilishini ta'minlash maqsadida asardagi ayrim qismlar voqealar obrazlarning joylashtirilish tartibidagi uyg'unlikdir. San'atkor u yoki bu fikrni, muayyan bir falsafani, harakatdagi qahramonni asarning asosiy g'oyasini yechish uchun shunday bir tizimda, tartibda, bog'lanishda joylashtiradi-ki, ular ayni shu joyda ham, alohida-alohida ham o'zlarini va birlashib, muallifning asl niyatini yorqin tarzda yuzaga chiqara olsinlar. Kichik tafsilotlardan tortib, ko'zga ko'rinmas me'yorgasha kompozitsiya tartibotida muhim vazifani bajaradilar. Demak, kompozitsion qurilishdagi mahorat asarning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan eng muhim vositalardan biri bo'lganidek, undagi noizchilik badiiy mantiqning buzilishiga olib keladi va asar hujayralaridagi joziba ta'sirini barbod qiladi. E'tibor bersangiz, "Abulfayzxon"ning birinchi pardasi Qozi Nozim, Ulfat, Mirvafolarning shohmot surayotgan holati bilan ochiladi. Vu manzara boshdanoq asar yo'nalishi, g'oyasi, qahramonlari, yozuvchi maqsadi haqida darak beruvchi yog'dudir. Uni asar o'rtasiga yoxud oxiriga qo'yish mumkin emas. Uning joyi xuddi shu yerda. Bu manzara shohmot ustidagilarning faqat taxta emas, Abulfayzxon saroyi hamda qismatining asosiy o'yinchilari ekaniga ishoradir. Xonning uyi tarzida ko'rsatilgan

bu manzara, ayni vaqtda, hali sahnada paydo bo'lmagan Abulfayzxonning o'ziga tashlangan bir savoldir: U shohmot taxtasi yanglig' hayot maydonida, xonlik sarhadlarida oqilona va to'g'ri ot sura oladimi, yo'qmi? Yoki asar nihoyasida sahnaga kirib kelgan hayol obraziga nazar tashlaylik. Dramaturg uni birinshi, ikkinchi yoki uchinchi rardalarda ko'rsatgani yo'q. Nima uchun? Shuning uchunki, zimmaga yuklangan badiiy vazifa hayolning dastlabki pardalarda emas, so'nggi rardalarda va buning ustiga, bu pardaning shu oxirgi sahnasida namoyon bo'lishini taqozo etadi. Tragediya g'oyasining cho'qqisi ham xuddi Shu - Xayol obrazining falsafiy mushohadalari zimmasiga qo'yiladi. Inson "Esini bir joyga to'plab" o'z erki, o'z huquqining qadriga o'zi yetmog'i lozim. Aks holda, zo'ravonlikning, zulmning kushandasi bo'lib qolaveradi. "Abulfayzxon" dramasida Fitrat ezgulik, insof, adolat va shaxs erkini ulug'ladi. Vu qadriyatlarni hokimiyat uchun turli-tuman, yolg'on-yashiq va shirkin vositalarga keskin qarama-qarshi qo'ydi. Avvalambor, Abulfayzxonning o'zi Buxoro taxtini razil yo'llar bilan egallagan. Maqsadiga erishish uchun akasi Ubaydullaxonning joniga qasd qilgan. "Al qasos-ul minal haq" deganlaridek, o'zi ham saroy fisq-u fujurlarining qurboni bo'ladi: raqiblari tomonidan xoinlarcha o'ldiriladi. Dramaturg saltanat tanazzuli sababini Abulfayzxon tabiatini tahlil etish orqali ko'rsatadi. Xon butun mamlakatni, barcha amaldorlarni qo'rquv, titroq, dahshat ostida tutib turdi. Chaqimchilik, tuhmat, fisq-u fujur, odamlarni gij-gijlashni yurti boshqarish tuzumida yetakchi qoidalar deb bildi. Mamlakatda o'zaro ishonchsizlik, hadik avjiga chiqdi. Natijada, johillik zahiriga qurilgan, zo'ravonlik siyosatiga yukingan saltanat uning egasi yanglig' inqirozga yuz tutdi. Lekin, yurtda ezgulik, insof adolatning qadr-qimmatini tushunadigan, ularning hayotdagi o'rni va bahosini e'zozlaydigan kishilar yo'q emas edi. Asardagi ana shunday obrazlardan biri Ibrohimbiy otaliqdir.

Rabimbiy. Abdumo'min to'rani xon ko'targanimdan xabaringiz yo'qmi?

Ibrohimbiy. Abdumo'min to'ra o'n besh yashar bir bola. Uni xon ko'tardingiz nima, ko'tarmadingiz nima?

Rahimbiy. Siz bo'lg'anda nima qilar edingiz?

Ibrohimbiy. Men bo'lganda, Abulfayzxonni tushurg'ash, qurultoy chaqirar edim. Yangi xon bilan uning otalig'ini el boshliqlarining kengashlari bilan belgilar edim.

Ibrohimbiy adolatparvar qahramon. U qo'rqmasdan, hatto, xonga qarshi kurash yo'liga o'tgan. "Elga yomonlik qilgan xon" ekani, yurtni talagani, hukumat ishlariga qaramagani mustaqillikkga ega bo'lmagani ushun Abulfayzxon bilan ziddiyatlarga kirishgan. U yurt egasini qurultoy yo'li bilan saylash lozim, degan ilg'or dunyoqarash egasidir. Fitrat Ibrohimbiy qiyofasidagi bu to'xtamga behuda urg'u berayotgani yo'q. Drama yozilayotgan 1924- yilda go'yo xalq xohishirodasi bilan amalga oshirilayotgandek, aslida esa, zo'rma-zo'rakilik bilan jumhuriyatlarni bo'lish jarayoni kechmoqda edi. Jumhuriyatga olis markazning o'z odami majburan tayinlanishi ham turgan gap edi. Yurt egasi qurultoy bilan, xalq ma'qul ko'rganlar safidan saylanmog'i kerak, deb qahramonni so'zlatgan Fitrat dramaga elning shu zamondagi orzularini ham singdirib yuborgan edi. "Abulfayzxo" dramasi orqali muallif o'zbek adabiyotida ilk bor inson va tarix, shaxs va jamiyat munosabatlarini badiiy yo'sinda gavdalantirish va bu masalalardagi badiiy idealni hal etish yo'llarini izladi. Qay darajada jamiyat farzandi bo'lmasin, ijtimoiy munosabat unda qay yo'sinda o'z muhrini qoldirmasin, shaxs, Fitrat talqinicha, eng avvalo alohida individdir. Shaxs kamolotida tarbiya va jamiyat ta'siri muhim bo'lgani bilan shaxs tabiatida irsiyat va shundan kelib chiquvchi o'ziga xoslikning o'rni kuchlidir. Shuning uchun shaxs, Fitrat talqinida, tarixni harakatga keltira oluvchi kuch, jamiyatga faol ta'sir ko'rsatuvchi siymo sifatida ko'rsatiladi. Tragediyada gavydalanitirilgan Abulfayzxon ana shunday shaxs, biroq afsuski, tarixda salbiy iz qoldirgan shaxsdir. Lekin dramaturg qahramonini salbiy deb, faqat qora ranglar bilan chaplamaydi. U tarixan hayotda qanday bo'lsa, shunday gavdalantiriladi. Badiiylik qonuniyatlari bilan xarakterini teranroq va tiniqroq qiladi, xolos. Fitrat jamiyat, muhit va sharoitning shaxsga ko'rsatuvchi ta'sirini jidiy gavdalantirishni ham unutgani yo'q. Xonning xo'jasaroyi Ulfat, Qozi kalon Nizom, Davlat to'qsabo, Rahimbiy va Hakimbiy otaliqlarning Abulfayzxon tegirmoniga suv

quyib, uni jaholat va razolatga sudrashdagi faolliklari haqida yuqorida gapirildi. Bu xuddi o'sha muhitning, sharoitning, tarixiy vaziyatning shaxsga o'tkazuvchi ta'siri va Shu tarixiy jarayonning badiiy talqinlaridir.

Ubaydullaxon, Abulfayzxon, Abdumo'minxonlarning xiyonatkorona o'ldirilishida ham tarixiy sharoitlarning inson taqdiriga ko'rsatgan ta'siri yotadi. Asar so'nggiga yaqin Abulfayzxon o'z razilliklaridan rushaymon, nadomat chekkan holda beriladi. Vu bilan muallif tarix va shaxs aro munosabatlarning vovaylo qo'ynida inson hech qachon faqat razillik timsoli bo'lib qololmaydi, inson o'zini-o'zi anglash fursatini topmog'i kerak, degandek bo'ladi. Asar tragediya janrida bo'lgani uchun unda fojealar ko'p. Lekin hayot faqat fojealardan iborat emas. Dramaturg hayot nurlarini, nurli qahramonlarni hamda shaxs va jamiyat, inson va tarixning o'zaro munosabatlarini shu qahramonlar talqiniga ham singdiradi. Shaxs va jamiyataro munosabat masalasidagi o'z idealini dramaturg, ayniqsa, Ibrohimbiy obrazida aks ettirdi. "Abulfayzxon" XVII asr Buxoro hayotidan olib yozilgan, rarixiy haqiqat asosiga qurilgan birinchi tarixiy tragediyadir. Unda ilk bor o'zbek dramaturgiyasida shekspirona teran tragik obrazlar yaratildi. U shu janrda jahon miqyosida tan olingan Shoh asarlar qatoridan munosib o'rin ola biladi. Uning ahamiyati o'zbek xalqi tarixidagi muhim hodisa va tarixiy shaxslar qismati haqqoniy aks ettirilishidagina emas. Zo'ravonlik va Shafqatsizlik mohiyati, zulm va istibdod asosiga qurilgan hokimiyatning barbod bo'lishi, ezgulikning zavoli, uvoli va kamolidagi mangu muammolarning go'zal badiiy talqinida namoyon bo'luvchi fazilatlar bu asarni zamon va makonga bo'ysunmas ravishda e'tiborli va qimmatli qiladi. Yuksak mahorat bilan yozilgan drama muallifning san'atkor, millatparvar, vatanparvar sifatidagi siymosini uyg'unlashtiradi. Asar yoshlarni istiqlol ruhida tarbiyalashda, mustaqilligimizning qadriga yetishda muhim ahamiyatga ega. Fitrat XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida alohida o'rin tutadi. U Milliy Uyg'onish adabiyotining jarchisi va asoschilaridan biri, jadidchilik harakatining ulkan arbobidir. U Yangi zamon she'riyatida barmoq vaznini mustahkamladi, erk va istiqlol g'oyalarini kuyladi. Vatan ozodligi, yurt istiqboliga bag'ishlangan

maqolalari bilan o'zbek publitsistikasining tamal toshini qo'ydi. Hali hikoyachilik janr sifatda yetarlisha to'liq shakllanib ulgurmagan bir davrda "qiyomat" singari asari bilan bu janrning qaror topishiga katta hissa qo'shdi. Dramalari bilan o'zbek adabiyotiga ko'plab yangi qahramonlar kirib keldi. Ular qatag'on davrining badiiy solnomalari sifatida adabiyotdan mustahkam o'rin egalladi. "Abulfayzxon" tragediyasi nainki dramaturgiyamiz, balki, umuman XX asr o'zbek adabiyotining "O'tkan kunlar", "Kecha va kunduz", "Nayoiy" singari mangu zavol bilmas namunalari qatoridan joy oldi. Fitrat asarlari o'zidan keyingi adiblar uchun mahorat maktabi bo'lib qoldi. Vu rang-barang merosda Fitratning adabiyotshunoslik, tilshunoslik, san'atshunoslik va siyosatshunoslikka bag'ishlangan tadqiqot va maqolalari salmoqli o'rin tutadi.

Fitratning ilmiy merosi

Fitrat badiiy asarlar bilan birga, maxsus ilmiy-nazariy yo'nalishdagi asarlar ham yozdi. Uning "She'r va shoirlik" (1919) nomli maqolasidan tortib, "Bedil", "Aruz haqida" (1935) nomli risolalarigacha, barchasi badiiy adabiyot va u haqdagi ilmning dolzarb amaliy-nazariy masalalariga bag'ishlangan. "Adabiyot qoidalari" (1926) nomli kitolbi o'tgan asrning 20-30- yillarida jumhuriyatimizda adabiyot nazariyasidan darslik vazifasini o'tadi. "Fors shoiri Umar Xayyom" , "Firdaysiy zamoni va muhiti", "Ahmad Yassayiy". "Nayoinyning forsiy shoirligi va uning forsiy devoni to'g'risida". "O'zbek shoiri Turdi", "Mashrab" singari tadqiqot va maqolalarida sharq va o'zbek mumtoz adabiyotining atoqli vakillari ijodi hamda ular bilan bog'liq muammolar XX asr o'zbek adabiyotshunosligida ilk bor maxsus tadqiq etildi. Fitrat "Farhod va Shirin dostoni to'g'risida". "XVI asrdan so'ng o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash", "Hibat ul-haqoyiq" singari umumlashma, muammoyiy xarakterdagi maqolalar yozdi. Ularda turli ijodkorlarga mansub ayrim asarlarni sharqda ilk bor qiyosiy yo'sinda o'rgandi. Muayyan davr ijodkorlarining o'ziga xosligini, adabiyot tarixida tutgan o'rnini yoritdi. Turkiy adabiyotga mansub Shoh asarlardan birini nainki bir xalq badiiy adabiyoti ravnaqi, balki umuman kishilik falsafiy-estetik tafakkuri tarixida tutgan o'rnini birinshilardan bo'lib yechib berdi. To'g'ri, Fitrat ilmiy qarashlarida o'z davri bilan izohlanuvchi ayrim

cheklanishlar mavjud. "Ahmad Yassayiy", "Ahmad Yassayiy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar" nomli maqolalari shular jumlasiga kiradi. Bu cheklanishlar bilimdon, dono olimga sho'ro mafkurasi zug'umining ta'siri tufaylidir. Fitrat tadqiqotlarining deyarli barchasi, beistisno ravishda, birlamchi manbalar, qadim va yaqin qo'lyozmalar asosida amalga oshiriladi. Tadqiq va tahlil orqali Fitrat aksar o'rinlarda badiiy asarni ilk bor muomalaga olib kiradi va ularni kitobxon mulkiga aylantiradi. So'nggi, taxminan, yetmish yil ichida mumtoz adabiyot tarixi bo'yisha yoritilgan u yoki bu ulkan muammolarning javhari Fitrat tadqiqotlarida yotadi. Shuning ushun XX asrda yetishib shiqqan qator ulkan adabiyot tarixi allomalari ushun Fitrat buyuk ustoz sanaldi. Fitrat fidoyi adabiyotshunos olimdir. U jahon adabiyotining uzoq tarixiga doir eng noyob namunalardan biri "Qutadg'u bilig"ning Qohira, Vena nusxalaridan keyingi Namangan nusxasini topib, ilm, madaniyat olamiga olib kirdi. Fitrat saralagan, tuzgan va nashr etgan "O'zbek adabiyoti namunalari" (1928) majmuasi tufayli she'riyatimizning ko'pdan-ko'p namunalari xalq mulkiga aylandi, keng kitobxonlar qo'liga tegdi. Olimning tilshunoslik sohasidagi mehnatlari ham salmoqlidir. "Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha! Shoirlik qilmoqchi emasman, so'zning to'g'risi shudir!" deb yozadi u "Tilimiz" (1919) maqolasida va davom etadi: "Ming yildan beri ezila kelmishdir. Lekin bitmamishdir. Bitmas, yashamishdir, yashar. Negakim boydir". U ona tilining chuqur tadqiq etilmagani, boshqa xalqlar tomonidan siquvda bo'lgani, unga chet so'zlarning yopirilib kirgani ushun ko'p qayg'urgan edi. Shu bois "Etimologiya", "Nahv. O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba" (1930) singari kitoblari, darsliklari, bu yo'nalishdagi qator maqolalari qalb ehtiyoji va davr talabi bilan maydonga keldi. U XX asr o'zbek madaniyat arboblari ichida birinchilardan bo'lib, "Devon-u lug'atit turk"ni o'rganishga kirishdi, mo'g'u1 tilining lug'atini tuzishga tayyorgarlik ko'rdi. Yangi tojik alifbosining loyihasi yuzasidan takliflar bildirib, maxsus maqola yozdi. Fitrat davrning muhim siyosiy masalalariga hech qachon befarq qaramadi, Turkistonning siyosiy hayotida faol ishtirok etdi. Muhim va dolzarb muammolarga chuqur bilimli siyosatchi sifatida o'zining munosabatini bildirdi. Matbuotdagi bahslarda ishtirok etdi. Mamlakat

taqdirida muhim ro'l o'ynaydigan muammolar yuzasidan o'zining aniq takliflarini o'rta ga tashladi. Uning "Siyosiy hollar", "Muxtoriyat", "Turkistonda ruslar", "Angliz va Turkiston", "Sharq siyosati" singari o'nlab publisistik maqolalari o'zbek siyosatshunosligida muhim o'rin tutadi. Ular o'zining amaliy ahamiyati jihatidan ham nihoyatda qimmatlidir. Shahar dumasiga saylov o'tkazilishi munosabati bilan yozilgan "Musulmonlar, g'ofil qolmang!" (1917) maqolasi yurtdoshlarini hushyorlikka chaqirsa, "Sharq siyosati" maqolasida (1919) Sharqni taraqqiy etib borayotgan g'arb, Ovrupa oldida qulluq qilibgina qolmay, yuksalishning izchil tadorigini ko'rishga shaqiradi. Endi XX asr oxiri XXI asr boshlarida uzil-kesil hal bo'lgan Yevropa Ittifoqi tuzilishi mumkinligining dastlabki harakatlari boshlanayotganini Fitrat o'sha vaqtdayoq anglab yetgan ekan. "Yosh buxorolilar"ning aksar muhim rrogramm hujjatlari va Buxoroda islohotlar o'tkazish dasturi loyihalari ham Fitrat qalamiga mansub ekani, Vuxoro jumhuriyatida turkiy til davlat tili deb e'lon qilinishi lozimligi haqidagi takliflar boshida Fitrat turganining nechog'lik o'tkir siyosatshunos bo'lganini ko'rsatadi. Fitrat ilmiy asarlari, ilmiy-nazariy qarashlari "yangilanish" va taraqqiyotning "murakkab va Zug'umli" yo'llarini boshdan keshirayotgan mamlakatning madaniy-adabiy va ijtimoiy-siyosiy hayoti uchun o'z vaqtida muhim ahamiyatga ega edi. Adabiyot, til, san'at, siyosat masalalariga doir bu ilmiy maqolalar keyingi bosqiclarda shu sohalarning ham amaliy, ham nazariy yo'nalishlari rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Fitrat tadqiqotlari keyingi avlod mutaxassisleri shakllanishida muhim ro'l o'ynadi. Oliy maktab ehtiyoji, akademik yo'nalishdagi salmoqli adabiyot nazariyalari, o'zbek tili grammatikasi, san'atimiz tarixi, siyosatshunoslik taraqqiyoti tamoyillari o'rganilgan tadqiqot va darsliklarning yuzaga kelishida, shubhasiz, Fitrat ilmiy merosining, adabiy asarlari va asar qahramonlarining ahamiyati kattadir.

1. Adabiyotlar ro'yxati:

1. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: «A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti», 2004 yil. 262 – bet.
2. Hotam Umurov. Adabiyot nazariyasi. –T.: «SHarq», 2002. 265-bet.
3. T.Boboev. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: «O'zbekiston» nashriyoti. 2002. 420-bet.
4. A.Oripov. Adolat ko'zgusi. –T.: «Ma'naviyat», 2005. 356-b.
5. A.Oripov. Menga xush xabar ayt. –T.: «Ma'naviyat». 2009. 126-bet.
6. D.Qurnov. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. 226-bet.
7. B.Akramov. She'riyat gavhari. –T. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1979. 186-bet.
8. N.Eshonqul. Yalpiz hidi. –T.: «SHarq», 2008. 398-bet.
9. U.Hamdam. Uzoqdagi Dilnura. –T.: «Akademnashr», 2010. 182-bet.
10. X.Do'stmuhammad. Povestlar. –T: SHarq. 2011. 489-bet.

ILMIY-PUBLITSISTIK ADABIYOTLAR

1. Xolmirzaev SH. Jamiyatning maqsadi, ya'ni mafkura bobida o'ylar // Tafakkur. – Toshkent, 1999. – № 1-2.
2. SHarafiddinov O. Adabiyot yashasa, millat yashar // SHarq yulduzi. – Toshkent, 1993. – № 9. – B. 129–138.
3. SHarafiddinov O. Millatni uyg'otgan adib // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2004. – 5 noyabr.
4. SHarafiddinov O. Modernizm jo'n hodisa emas // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2002. – 7 iyun.
5. SHarafiddinov O. «Kecha va kunduz» // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 1990. – 16 fevral.
6. SHarafiddinov O. Ko'ngilda qolg'usi uning bir izi // SHarq yulduzi. – Toshkent, 1990. – №3. – B. 191–201.

7. Safarov O, Yo'ldoshev B, Ahmedov SH. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. - Bux Du -2003. -B.284.
8. Safurov I. Go'zallikning olmos qirralari. -T: Fan, 1964.
9. Sulton Z. Adabiyot nazariyasi. -T: SHarq, 2005. -B.265.
10. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. -T: YAngi asr avlodi, 2006. -B.548.
11. Umurov H. Tahlil san'at. -T: Fan, 1978. -B.260.
12. SHarafiddinov O, Mamajonov S, Normatov U va b.sh. asr o'zbek adabiyoti tarixi. -T: O'qituvchi, 1999. -B.243.
13. SHokirov O'. Tanqidchi va adabiy jarayon. -T: Fan, 1976.
14. YOqubov I. O'zbek romani tadriji. -T: Fan va texnologiya, 2006. -B.164.
15. Quronov D., Adabiyot nadir,, yoki CHO'lponning mangu savoli. -T: Zarqalam, 2006. -B.145.
16. Mirvaliev S. O'zbek adiblari. -T: YOzuvchi, 2000. -B.223-224.
17. Mirzaev I. Badiiy uslub sehri. -Samarqand: 2000. -B.121.
18. Normatov U. Mahorat sirlari. (M. Qo'shjonov bilan hamkorlikda). -T. 1972.
19. Normatov U. Nasrimiz ufqlari. -T: YOsh gvardiya, 1974.